

TARJIMADA LINGVOKULTUROLOGIK REALIYALARNI IFODALASH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Abdiyeva Sevinch Muzaffar qizi

ToshDO‘TAU 4-kurs

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada lingvokulturologik realiyalarni tarjima jarayonida ifodalashda uchraydigan muammolar va ularni hal etish yo‘llari yoritilgan. Madaniy realiyalar xalqlarning ijtimoiy hayoti, urf-odatlar, mentaliteti va tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi leksik birliklar hisoblanadi. Shu bois ularni tarjima qilishda nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, etnologiya va kommunikativ kompetensiyalar ham muhim o‘rin tutadi. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi realiyalar misolida tahlil o‘tkazilib, ekvivalent tanlashdagi ilmiy yondashuvlar, strategiyalar va amaliy yechimlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, madaniy realiya, tarjima strategiyasi, ekvivalentlik, milliy kolorit, madaniyatlararo kommunikatsiya.

Annotation. This scientific article highlights the problems encountered in expressing linguocultural realia during the translation process and the ways to solve them. Cultural realia are lexical units that reflect the social life, customs, mentality, and historical development of nations. Therefore, in translating them, not only linguistics but also cultural studies, ethnology, and communicative competencies play an important role. The article analyzes examples of realia in English and Uzbek languages and examines scholarly approaches, strategies, and practical solutions for choosing the appropriate equivalents.

Keywords: linguoculturology, cultural realia, translation strategy, equivalence, national color (national colouring), intercultural communication.

Аннотация. В данной научной статье освещаются проблемы, возникающие при передаче лингвокультурологических реалий в процессе перевода, а также пути их решения. Культурные реалии представляют собой

лексические единицы, отражающие социальную жизнь, обычаи, менталитет и историческое развитие народов. Поэтому при их переводе важную роль играют не только лингвистика, но и культурология, этнология и коммуникативные компетенции. В статье на примере реалий английского и узбекского языков проводится анализ, рассматриваются научные подходы, стратегии и практические решения при выборе эквивалентов.

Ключевые слова: лингвокультурология, культурная реалия, стратегия перевода, эквивалентность, национальный колорит, межкультурная коммуникация.

Tarjima insoniyat tarixida madaniyatlararo muloqotni ta'minlovchi eng muhim vositalardan biridir. Har bir til muayyan xalqning dunyoqarashi, qadriyati va ijtimoiy tajribasini o'zida mujassam etgani bois, uni boshqa tilda to'liq ifodalash ko'p hollarda murakkab kechadi. Ayniqsa, madaniy realiyalarni tarjima qilishda lingvokulturologik farqlar sezilarli darajada namoyon bo'ladi.

Madaniy realliyalar – bu xalqning o'ziga xos urf-odatlar, kiyim-kechagi, taomlari, bayramlari yoki tarixiy shaxslarini ifodalovchi so'z va iboralardir. Masalan, o'zbek tilidagi *do'ppi, sumalak, Navro'z, belbog'* kabi birliklar boshqa madaniyatlarda aynan ekvivalentga ega emas. Xuddi shuningdek, ingliz tilidagi *Thanksgiving, pub, Oxford, Halloween* kabi tushunchalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda kontekstga mos yondashuv zarur bo'ladi.

E. Nida o'zining “Dinamik ekvivalentlik nazariyasi”da tarjima jarayonida asosiy maqsad — “matnning ta'sir kuchini saqlagan holda” mazmunni ifodalash ekanini ta'kidlaydi.[1964, b.45] Shunday ekan, madaniy realiyalar tarjimasida so'zning shakli emas, uning mazmuni va madaniy konnotatsiyasi muhim hisoblanadi.

Lingvokulturologiya — til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganadigan soha bo'lib, tarjimashunoslikda realiyalarni to'g'ri tahlil qilish uchun zarur nazariy asosni yaratadi. Realliyalar tilda xalq madaniyatining “kodlari” sifatida mavjud bo'lib, ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Etnografik realiyalar: xalq kiyimlari, taomlari, turmush buyumlari (do‘ppi, chapan, sumalak);
- Ijtimoiy realiyalar: milliy institut va lavozim nomlari (aksakal, mahalla, tuyona);
- Geografik realiyalar: joy nomlari, tabiiy obyektlar (Farg‘ona vodiysi, Amudaryo);
- Tarixiy realiyalar: muhim tarixiy davrlar yoki shaxslar (Amir Temur, Jadidchilik, Buyuk Ipak yo‘li). [Karimov, 2020, b.47]

Bu birliklar xalqning milliy o‘ziga xosligini ifodalab, tarjimon oldida semantik ekvivalent tanlash masalasini yuzaga keltiradi.

Bassnettning fikricha madaniy realiyalar tarjimasida til, madaniyat va kontekst o‘rtasidagi uzviy uyg‘unlikni talab etadi. [2014, b.66] Har bir til o‘z madaniyatining mahsuli bo‘lgani uchun, realiya so‘zlarni tarjima qilishda faqatgina til birliklarini emas, balki ularning orqasida turgan milliy tafakkur, tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlarni ham hisobga olish lozim. Shu bois bu jarayon nafaqat lingvistik, balki madaniyatshunoslik, semiotik va pragmatik tahlilni ham talab qiladi. Masalan, bir xalq madaniyatida oddiy maishiy tushuncha sifatida qabul qilingan birlik, boshqa madaniyatda muhim diniy yoki ramziy ma’no kasb etishi mumkin. Shu sababli realiyalar tarjimasida mazmuniy moslik (semantic equivalence) bilan bir qatorda madaniy moslik (cultural adequacy) tamoyili ham muhim ahamiyatga ega.

Madaniy tafovutlar ko‘pincha tushunarsizlik yoki noto‘g‘ri talqinga olib keladi. Bu ayniqsa badiiy tarjimalarda yaqqol seziladi, chunki realiyalar asarning milliy koloritini shakllantiradi. Agar tarjimon madaniy konnotatsiyani to‘liq anglamasa, matn o‘zining milliy ruhini yo‘qotadi. Shu sababli tarjimon uchun nafaqat tilni bilish, balki madaniyatlararo kompetensiyaga ega bo‘lish zarur.

Yana bir muhim jihat – kontekstni to‘g‘ri tahlil qilish. Bitta realiya so‘z turli kontekstlarda turlicha ma’no kasb etishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *tea* so‘zi faqat “*choy*” emas, balki ingliz madaniyatida “*nonushta, kechki choy ichish*

marosimi”ni ham anglatadi. Xuddi shuningdek, o‘zbek tilidagi *mahalla* so‘zi “*geografik joy*” emas, balki ijtimoiy institut sifatida milliy hayot tarzini ifodalaydi.

Shu sababli tarjimon madaniy realiyalarni tarjima qilishda uch darajada ish olib boradi:

1. Lingvistik daraja – so‘zning leksik va grammatik shaklini aniqlash;
2. Madaniy daraja – so‘z ortidagi urf-odat, qadriyat yoki tarixiy ma’noni tushunish;
3. Kommunikativ daraja – maqsadli auditoriya uchun eng mos ifodani tanlash.

Shunday qilib, madaniy realiyalar tarjimasidagi asosiy muammolar ekvivalentning yo‘qligi, madaniy tafovut, konnotativ farqlar va estetik yo‘qotish kabi omillar bilan belgilanadi. Ularni bartaraf etish uchun tarjimon keng madaniy dunyoqarash, tahliliy fikrlash va ijodiy yondashuvni uyg‘un qo‘llay bilishi zarur.

Tarjimonda ba’zan tarjima qilish jarayonida quyidagi muommoli vaziyatlarga ham duch kelishi mumkin:

1. Ekvivalentning yo‘qligi: Masalan, *mahalla* so‘zining ingliz tilida aniq ekvivalenti yo‘q. “*Neighborhood*” qisman yaqin bo‘lsa-da, u ijtimoiy jihatdan o‘zbekcha “*mahalla*”ning funksiyasini to‘liq ifodalay olmaydi.
2. Madaniy tafovut: *Sumalak* yoki *Navro‘z* tushunchalarini boshqa madaniyat vakillariga tushuntirish uchun tavsifiy tarjima zarur bo‘ladi.
3. Konnotativ tafovut: Ayrim so‘zlar turli madaniyatlarda ijobiy yoki salbiy ma’no kasb etishi mumkin.
4. Estetik yo‘qotish: Badiiy asarlarda milliy koloritni yo‘qotmaslik uchun so‘z o‘yinlari va ramzlar saqlanib qolishi lozim.

P. Nyumarkning fikricha, “madaniy so‘zlar tarjimasida muhim jihat – ularning kommunikativ qiymatini yo‘qotmaslikdir”, ya’ni tarjima o‘quvchi uchun o‘sha madaniy konnotatsiyani uyg‘otishi kerak. [1988, b.95-96]

Madaniy realiyalarni tarjima qilishda tarjimonlar bir necha strategiyalardan foydalanadilar:

1. Transliteratsiya: soʻzni asl shaklda saqlash (doʻppi – doppi, sumalak – sumalak).
2. Tavsifiy tarjima: soʻz maʼnosini izohlash (belbogʻ – a traditional Uzbek men's waist belt).
3. Analogik tarjima: boshqa madaniyatdagi oʻxshash birlik bilan almashtirish (Navroʻz – New Year festival).
4. Izohli tarjima: tarjimada yoki izoh sifatida madaniy maʼlumot keltirish.
5. Kontekstual adaptatsiya: tarjimoni maqsad auditoriyasiga moslashtirish.

Masalan, *pub* soʻzini oʻzbekchaga “*pab (bar)*” deb transliteratsiya qilish mumkin, lekin bu soʻzning ijtimoiy va madaniy mazmunini toʻliq ochish uchun inglizlarda doʻstlar uchrashadigan jamoat joyi kabi tavsif ham kiritiladi. Aksincha, oʻzbek tilidagi *tuyona* soʻzini ingliz tiliga *wedding gift money* deb izohli tarjima qilish, maʼno va madaniy mohiyatni saqlab qolish imkonini beradi.

A. Lefevere tarjimoni “madaniyatlar oʻrtasidagi muzokara” deb ataydi va tarjimonning vazifasi – “asl matnni oʻz madaniyatida yangidan yaratuvchi” ijodiy shaxs ekanini taʼkidlaydi. [1992, b.12]

Quyidagi jadvalda ingliz va oʻzbek realiyalarining tarjima variantlari keltirilgan:

Asliyadagi soʻz	Tarjima varianti	Qoʻllangan strategiya	Izoh
Pub	Pab (bar)	Transliteratsiya + izoh	Ingliz jamiyatidagi ijtimoiy joy
Thanksgiving	Minnatdorchilik bayrami (AQShda nishonlanadi)	Tavsifiy tarjima	Madaniy bayram tushunchasi
Doʻppi	Traditional Uzbek skullcap	Tavsifiy tarjima	Milliy kiyim turi
Sumalak	Festive dessert made from sprouted wheat	Tavsifiy tarjima	Bahor bayramiga xos taom

Mahalla	Local self-governing neighborhood community	Izohli tarjima	Ijtimoiy institut sifatida
---------	---	----------------	----------------------------

Bu tahlil shuni ko'rsatadiki, har bir realiya uchun yagona tarjima usuli mavjud emas. Tarjimon kontekst, janr va maqsad auditoriyasini inobatga olgan holda optimal strategiyani tanlashi zarur

Lingvokulturologik realiyalar tarjimasi — bu tilshunoslik, madaniyatshunoslik va kommunikativ kompetensiya kesishmasidagi murakkab jarayondir. Tarjimon nafaqat so'zning lug'aviy ma'nosini, balki uning orqasida turgan madaniy semantikani ham anglab yetishi zarur.

Madaniy realiyalarni to'g'ri tarjima qilish:

- milliy koloritni saqlaydi;
- o'quvchiga begona madaniyatni anglash imkonini beradi;
- asliyatning badiiy va g'oyaviy qiymatini yo'qotmaydi.

Shu bois tarjimonda lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirish, har ikki madaniyatni chuqur o'rganish va zamonaviy tarjima strategiyalarini qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bassnett, S. 2014. Translation Studies. London: Routledge.
2. Nida, E. A. 1964. Toward a Science of Translating. Leiden: Brill.
3. Newmark, P. 1988. A Textbook of Translation. Prentice Hall.
4. Lefevere, A. 1992. Translation, Rewriting, and the Manipulation of Literary Fame. London: Routledge.
5. Karimov, A. 2020. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: TDJTU nashriyoti
6. Abdullayeva, M. 2019. "Madaniy realiyalar tarjimasining lingvokulturologik tahlili." Filologiya masalalari jurnali, №2.